

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan
yo'llar - hissiy anglash, rost xabar va aqldir.

Imom Moturidiy

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Шоазим МИНОВАРОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, доцент

Жамолиддин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Махмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Мухаммад АЙЁД (نظیر محمد عیاد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети хузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчisi

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Дониёр МУРАТОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Одил ЭРНАЗАРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўзбекистон Республикаси Дин ишилари бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги 04-07/8931-сонли холосаси асосида тайёргланди.



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ҲАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ҲАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:
Жамолиддин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:
Зафар Фахриддинов,
*Исломчинослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:
Зарифжон Арслонов

Дизайнер:
Зарифжон Гуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабря Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
хузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-й.

E-mail: maturidijournal.uz
Web-sahifa: info@moturidiy.uz
Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Zohidjon Islamov.

«Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили..... 5

Ramil Adygamov.

Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия..... 13

Zafar Fakhreddinov.

«Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили 23

Jurabek Chutmatov.

Ҳаким Термизий тафсирининг илк нашри 31

Ahmadkhan Alimov.

Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари..... 42

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov.

Бурҳониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асарида Қуръондан ҳуқуқий манба сифатида
фойдаланиш услуби 51

Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov.

Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim..... 59

ДИНШУНОСЛИК

Nigora Yusupova.

Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг
ҳуқуқий асослари 65

Odiljon Ernazarov.

Shamsuddin Samarcandiying xristianlik haqidagi qarashlari 74

Jurabek Sodikov.

«Ta’vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e’tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili 80

Shahzoda Abduraimova.

Distribution of religious media contents on websites in Germany 90

Behzodbek Soipov.

Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамоилиининг
аҳамияти 96

ИСЛОМ ТАРИХИ

Sanabar Djurayeva.

Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi 103

Muhabbatkhan Agzamova.

«Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий
ёритишдаги аҳамияти 108

Lola Azimova.

Марказий Осиё цивилизацияси ривожида илмий масканларнинг ўрни 115

Oybek Sotvoldiyev.

«Ат-Табақот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида 122

Zarifjon Arslonov.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan
mavzular tahlili 130

ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

Doniyor Muratov.

Арбайн жанри хусусида 139

Akmalkhan Akmalkhanov.

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini 148

Dilfuza Sagdullaeva.

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услугубий хусусиятлари 156

Feruza Nizamova.

Dehlaviy ijodida badiiyat an’analari 163

Bahodirjon Azamov.

Ҳаким Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг
манбашунослик таҳлили 171

Muhammadnur M. MURODKHANOV,
Student of the International Islamic
Academy of Uzbekistan.

A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: murodkhonovmukhammadnur@gmail.com

Khaydarali YUNUSOV,
Candidate of Juridical Sciences,
Leading Researcher of the Institute of State and Law.

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/7

IMOM SARAXSIY – YIRIK XALQARO HUQUQSHUNOS OLIM

IMAM SARAKHSI IS A PROMINENT INTERNATIONAL LAWYER

ИМАМ САРАХСИ – КРУПНЫЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УЧЕНЫЙ- ПРАВОВЕД

KIRISH

Insoniyat tarixida mustaqil siyosiy-hududiy tuzilmalar o‘zaro aloqaga kirishganda va hamkorlik qilganda ular o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish zarurati paydo bo‘lgan. Ushbu jarayon yillar davomida xalqaro tartibga solish mexanizmlarini rivojlanirish hamda umumbashariy qonun-qoidalarni ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirgan. Shu bois, insoniyat tarixini xalqaro huquqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xalqaro huquq o‘z nomi bilan xalqaro huquq ekan, u tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash hamda barqaror rivojlanishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro huquq umumbashariy xarakterga ega ekan, u albatta ishonchli va mustahkam bo‘lishi darkor.

Oxirgi yillarda jahonda, shu jumladan yurtimizda olib borilgan xalqaro huquq tarixiga oid izlanishlar bizni bu sohani chuqurroq o‘rganishimizga turki bo‘ldi. Xalqaro huquqning tadrijiy rivojlanishini o‘rganar ekanmiz, avvalo xalqaro huquq tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishimizga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, xalqaro huquq – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining xohish-irodasini muvofiglashtirish yo‘li bilan vujudga keladigan, ular o‘rtasidagi turli munosabatlarni tartibga soladigan xalqaro huquq normalari, xalqaro shartnomalar va umum tan olingan prinsiplar yig‘indisidir (Yuldasheva G., 2018:7). Xalqaro huquq fani xalqaro huquqiy munosabatlar va huquqiy nizomlar asosida

shakllangan fan sohasidir. Mazkur fan xalqaro huquqning asosiy mazmun-mohiyati, tamoyillari, rivojlanish bosqichlarini o‘zida aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Xalqaro huquq g‘oyasining vujudga kelishi tarixiga qarar ekanmiz, tadqiqotchilar mustaqil siyosiy-hududiy birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiylar qoidalarning asoschilari sifatida Yevropa olimlarini misol qilib ko‘rsatishadi. G‘arbda XVI - XVII asrlarda xalqaro huquqning shakllanish davridan XVIII asrgacha bo‘lgan davr «Xalqaro huquqning epik davri» deb atalib, ushbu sohaning mashhur olimlari yetishib chiqqanligi bayon qilinadi (Umarxonova D.Sh., Umridionov A.I., 2021:19). Bunday olimlar orasida Hugo Grotsiy, Fransisko de Vitoria, Alberiko Jentili, Per Beyl va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Tabiiy huquq nazariyachilaridan biri bo‘lgan niderlandiyalik huquqshunos va diplomat Hugo Grotsiy (Gugo Grotius, 1583-1645) ko‘plab adabiyotlarda «Xalqaro huquqning otasi» deb ataladi (Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T., 2007:37). U o‘zining shoh asari bo‘lmish «Urush va tinchlik qonuni» (De Jure Belli ac Pacis) kitobini 1625-yilda nashr etgan. Hugo Grotius butun Yevropani qamrab olgan shiddatli 30 yillik urushda bevosita qatnashadi. Ushbu kitob xalqaro huquq mavjudligining asosi sifatida tabiiy huquq nazariyasini ko‘rsatadi (Scatt J., 1928). Grotsiydan avvalroq ispaniyalik ilohiyotchi Fransisko de Vitoria (Vitoria, 1483-1546) hamda Suares (Suarez, 1548-1617) kabi olimlarning asarlarida xalqaro huquq sohasining tamal toshlari qo‘yilgan deyishimiz mumkin.

MUHOKAMA

E’tibor berishimiz lozim bo‘lgan asosiy fikr shundan iboratki, xalqaro huquqqa asoslangan ilk fundamental va mukammal asar G‘arb olamida emas, balki bizning diyorimizda, hozirgi O‘zbekistonning shimoli-sharqida joylashgan Farg‘ona vodiysida yozilgan.

Mazkur xalqaro huquqqa oid ilmiy qo‘lyozmaning tarixi G‘arb tarixidagi «xalqaro huquq otasi» Hugo Grotsiy tomonidan yozilgan asarlardan besh asr ilgari hamyurtimiz Muhammad Abu Bakr Saraxsiy-Hanafiy tomonidan bitilgan. Bunda huquqning barcha sohalariga tegishli juda ko‘p masalalar, ayniqsa, tinchlik shartnomalarini tuzishdagi me’yorlar, inson huquqlari, xalqaro etika va estetika, xalqaro huquqning

tamoyillariga asoslangan ta'limotlar Saraxsiyning «Sharh as-Siyar al-Kabir» kitobida tasniflash orqali mufassal yoritib berilganini ko'ramiz. Bu haqiqat o'z navbatida turli asarlarda hamda ko'plab olimlar, siyosatchilar tomonidan e'tirof etilgan.

Hanafiy mazhabining buyuk faqihlaridan biri «Shams ul-Aimma» («imomlar quyoshi») Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abi Sahl Saraxsiy Movarounnahrda (taxminan milodiy 1010-yilida tug'ilib, 1096-yil vafot etgan (Yunusov H., 2022:18). Bu vaqtida Movarounnahrda (ما وراء النهر) Qoraxoniylar sulolasi (927-1212) hukmronlik qilardi. Muhammad bolaligidan ilmga chanqoq va o'tkir zehnli bo'lgan. Saraxsda boshlang'ich diniy ta'limni chiqarib, Qur'oni karimni to'liq yod olgan, hadis, sarf, nahv grammatika, balog'at ilmlarini egallagan. Keyinchalik u Movarounnahrning turli shaharlarida, jumladan, Samarqand va Buxoroda ilmini takomillashtirgan. Buxoroda uzoq muddat yashagan. Abu Muhammad Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriydan (1057) fiqh, usul al-fiqh, hadis, kalom, fiqh ilmlaridan dars olib, zamonasining yetuk fiqh olimi bo'lib etishadi (A'zamxo'jayev S., Zikrullayev M., Shojalilov Sh., Mo'minov D., Saidjalilov S., 2011:28). Saraxsiy taniqli hanafiy faqifi Shams al-Aima Halvoniyning shogirdi edi (Norman Calder., 1997).

NATIJA

Halvoniyning «Madinat al-ulum»ini tamomlaganidan so'ng, u o'zining munozaralari va kitoblari bilan ilm ziyosi bo'ldi (Abd al-Hai al-Laknavi., 1906:260) va shuning uchun ham alloma ustozining «Imomlar quyoshi» degan unvonini oldi (Rafiq al-Ajam., 2008:17). Imom Saraxsiy o'z hayotini ilmga bag'ishlagan, nihoyatda ziyoli, adolatli faqih olim bo'lgan. Keyinchalik unga nisbatan bir qancha tuhmatlar uyuştirildi. Hukmdorga qarshi fikrlari uchun Saraxsiy Qoraxoni hukmdor Shams al-Mulk II Nasrxon tomonidan milodiy 1074 (hijriy 466) yilda zindonga tashlanadi va 15 yildan keyin – 1088 yilda ozod etiladi. Ozodlikka chiqqach, u Farg'onaga taklif etiladi, Amir Hasan saroyida izzat-ehtirom bilan kutib olinadi. Xalqaro huquq mavzusiga bag'ishlangan «Sharh as-Siyar al-kabir», ya'ni «Xalqaro huquqqa sharhlar» asarini o'sha yerda 1090-yilda yozib tamomlaydi (Yunusov H., 2022:252).

Buyuk vatandoshimiz Muhammad Abu Bakr Saraxsiy al-Hanafiyning xalqaro huquqqa oid «Sharh as-Siyar al-Kabir» mumtoz asari fundamental, islom va xalqaro huquqning tayanch qo'llanmasidir. Ushbu asar

«Xalqaro huquqqa oid sharhlar» asari bo'lib, islom huquqi sohasida ham nazariyotchi, ham amaliyotchi olim sifatida tanilgan Muhammad Shayboniy (750-805)ning asari asosida «sharh» orqali tasnifangan islom va xalqaro huquqqa bag'ishlangan birinchi qomusiy asar sifatida e'tirof etilgan. Saraxsiyning islom xalqaro huquqiga qo'shgan hissasi ulkandir. Bu sohadagi betakror xizmati uchun ulug' mutafakkirga «Islom dunyosining Gugo Grotsiysi» deb laqab berishgan. Saraxsiyning ushbu «sharh»ida tinchlik sulhi shartnomalarining uzog'i bilan 10 yil muddatga tuzish lozimligi eslatiladi (Yunusov H., 2022:167). Bunda tinchlik sulh shartnomalari muayyan maqsadlar asosida tuziladi. Ushbu asar jami 5 jiddan iborat bo'lib, islom huquqi tarixidagi siyar (xalqaro huquq) ga bag'ishlangan birinchi doktrinal asardir. Asarning har bir jildi alohida mavzulashtirilgan bo'lib, asosan mudofaa sulhi, tinchlikni qaror toptirish kabi mavzularni qamrab oladi. Mazkur asarni alloma O'zgand shahrida zindonda yozishni boshlagan va uni Farg'onada tamomlagan.

Ayni shu davrlarda islom davlatlarining aloqalari kuchayib borgan va diplomatik aloqalar uchun xalqaro huquq me'yorlarining zarurati yuqori hisoblangan. Tashqi siyosat va xalqaro aloqalar vositasi sifatida diplomatik aloqalar islom davlatchiligidagi muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois, islom huquqi tamoyillariga mos ravishda diplomatik va konsullik huquqi ham rivojlanib borgan. Ummaviylar va Abbosiylar davriga kelib, Arab xalifaligi bilan G'arb va Sharq davlatlarida o'zaro aloqalar yanada kuchaygan. Xususan, Ummaviylar bilan ularning joylardagi noiblari o'rtaida hijriy 59-132 yillar oralig'ida 62 marta elchilik safarları tashkil etilgan, 59 marta o'zaro maktublar almashinuvni amalga oshirilgan. Islom huquqida elchilarga bemisl daxlsizlik huquqi va imtiyozlari taqdim etilgan. Ularning ba'zilari hozirgi kunda ham amaliyotda qo'llaniladi, ba'zilari esa vaqt o'tishi bilan bekor qilingan. Bu esa o'z o'rniда Islom va xalqaro huquqning o'sha davrda shakllangani va uni hamyurtimiz tomonidan tasniflash orqali tizimli asosda ilmiy tahlil qilingani mutlaq tan olishimiz zarur.

Shu o'rinda xalqaro huquqning turli masalalari yuzasidan Saraxsiy va g'arb mumtoz olimi Gugo Grotsiyning qarashlarini taqqoslab o'tishimiz foydadan xoli emas. Urush va tinchlik masalasida Grotsiyning fikricha, faqat adolatli urushlarga ruxsat berilishi kerak. Gugo Grosiy urush muammolarni hal qilish vositasi sifatida qabul qilinishi lozim degan fikrni ilgari suradi. Buning asosi sifatida xalqlar o'rtaсидаги nizoni

Annotasiya. Ushbu maqola XI asrda yashab ijod qilgan Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr Saraxsiyning hayoti va ilmiy merosiga bag 'ishlangan. Unda Saraxsiyning huquqshunos sifatida xizmatlari bayon etiladi. Saraxsiy islom huquqining rivojlanishiga ulkan hissa qo 'shish bilan birga, islom olamida birinchi bo 'lib xalqaro huquq yo 'nalishiga asos solgan. Saraxsiy asarlarida norma ijodkorligi, huquqni tushunish metodologiyasi, huquqning ilmiy nazariy va amaliy masalalari batafsil yoritilgan.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston «Musulmon dunyosining Gugo Grotsiysi» deb nom olgan zabardast olim Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy asarlari tufayli xalqaro huquq tug 'ilgan vatandir. Saraxsiy arab olimi Muhammad Shayboniyning «Xalqaro huquq kitobi»ga sharhlar yozish asnosida birinchi bo 'lib «siyar» – «xalqaro huquq»ni huquqning alohida va mustaqil sohasi sifatida ta'riflagan. Xalqaro huquqda Imom Saraxsiyning o 'rni beqiyos ekanligini nafaqat Sharq olami balki, G 'arb olami ham tan olib kelmoqda. Imom Saraxsiy har tomonlama chiqur tahlil ostida Muhammad Shayboniyning as-Siyar al-Kabir asariga bergan fundamental ta'rifi hali hamon xalqaro huquq uchun asosiy ustun bo 'lib xizmat qilib kelmoqda. Imom Saraxsiy nafaqat xalqaro huquq sohasida balki, Islom huquqi sohasida ham mumtoz adabiyotlarni meros qilib qoldirgan. Ushbu jarayonlarni umumlashtirgan holda O'rtta asrlar musulmon olamida to 'plangan ilmiy bilimlar g 'arbda Uyg 'onish davrini tayyorlash uchun asosiy fundament vazifasini bajarganligini ko 'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, islom huquqi, yurist, din, islom, «Kitobul-mabsut» (Mufassal kitob), usulul-fiqh, manbarlar, faqih, ta 'limot, mujtahid, «Sharh as-Siyar al-Kabir».

Abstract. This article is dedicated to the life and scientific legacy of Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr Sarakhs, who lived and worked in the 11th century. It describes Sarakhs's services as a lawyer. Sarakhs made a great contribution to the development of Islamic law and was the first in the Islamic world to establish the doctrine of international law. His works cover all sensitive aspects of law such as creation of norms, the methodology of understanding the law, scientific theoretical and practical issues of law.

Central Asia, namely Uzbekistan, is, apparently, the homeland of International Law thanks to works of formidable scholar Muhammad ibn Ahmad Sarakhs, so-called as «Hugo Grotius of the Muslims». By interpreting Arabic scholar Muhammad Shaybani's book «Kitab al-Siyar al-Kabir», Sarakhs was first to set forth the «Siyar» – «International Law» as an autonomous and legitimate discipline within the framework of law. The role of Imam Sarakhs in international law is recognized not only by the East, but also by the West. Imam Sarakhs's fundamental definition of al-Siyar al-Kabir by Muhammad Shaybani under comprehensive analysis still serves as the main pillar for international law. In our article, the French president's thoughts on this matter and the works of international law representative Hugo Grotius are compared. Imam Sarakhs left classic literature not only in the field of international law, but also in the field of Islamic law. Summarizing these processes, we can see that the scientific knowledge accumulated in the Muslim world of the Middle Ages served as the main foundation for the preparation of the Renaissance in the West.

Keywords: domestic law, Islamic law, jurisprudent, religion, Islam, «Kitabul-mabsut» (Broaden book), usul-fiqh, sources, legal science, doctrine, lawmaker; «Sharh al-Siyar al-Kabir».

Аннотация. Статья посвящена жизни и научному наследию Мухаммада ибн Ахмада Абу Бакра Сарахси, жившего и ведшего научную деятельность в XI веке. В ней описываются заслуги Сарахси как юриста. Сарахси внес большой вклад в развитие исламского права и первым в исламском мире утвердил доктрину международного права. Его работы охватывают все аспекты права, такие как нормотворчество, методология понимания права, научно-теоретические и практические вопросы права.

Центральная Азия, а именно Узбекистан, является родиной международного права, благодаря трудам выдающегося ученого Мухаммада ибн Ахмада Сарахси, так называемого «Гуго Гроция мусульманского мира». Интерпретируя книгу арабского ученого Мухаммада Шайбани «Китаб ас-Сияр аль-Кабир», Сарахси первым сформулировал «сияр» – «международное право» как автономную и легитимную дисциплину в рамках права. Роль Имама Сарахси в международном праве признается не только Востоком, но и Западом. Согласно глубокому анализу Имама Сарахси, фундаментальная интерпретация ас-Сияра ал-Кабира Мухаммадом Шайбани по-прежнему остается основным столпом международного права. Имам Сарахси оставил наследие классической литературы в области международного права и исламского права. Подводя итог этим процессам, мы видим, что научные знания, накопленные в мусульманском мире Средневековья, послужили основным фундаментом подготовки Возрождения на Западе.

Ключевые слова: международное право, исламское право, юрист, религия, ислам, «Китабул-мабсут» (Сборная книга), усуль-фих, источники, правовед, учение, муджтахид, «Шарх ас-Сияр ал-Кабир».

qonuniy hal qilish uchun sudsarning yo‘qligini da’vo qilib, boshqa tomondan, urush sabablari faqat sudga tortilishi mumkin bo‘lgan sabablar bilan cheklanishi kerakligi haqidagi fikrlarini bayon etadi. Masalan, u mulkni himoya qilish va qayta tiklash urushning sababi hisoblanishini ta’kidlaydi, shuningdek, jinoyat va jazo nazariyasini ishlab chiqdi (Pleaders., 2022). Lekin, bundan besh asr ilgari Abu Bakr Saraxsiyning nodir asari «Sharh as-Siyar al-kabir»ning 1-jildi urush huquqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda urushga tayyorgarlik, urush harakatlari va quroq qo‘llash qonuniyligi haqida so‘z yuritiladi. Unda otlarni urushga tayyorlashdan tortib jangda qo‘llaniladigan quroq-aslahalargacha bo‘lgan savollar muhokama etiladi hamda urushning natijasi islom dini maqsadlariga muvofiq bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi (Юнусов X., 2022:263). Urushning faqat odilona olib borilishi, tinch aholiga ozor yetkazmasligi, inson huquqlarining ustunligi haqida fikrlar asardan joy olgan. Shuningdek, kitobning 2-jildida urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljalar xususida ham so‘z yuritiladi. Asar tahlilidan kelib chiqib, Abu Bakr Saraxsiyni tom ma’noda fundamental va mukammal asar muallifi deya ta’riflashimiz mumkin.

Shuningdek, Saraxsiyning fiqh sohasidagi durdona asarlaridan biri sifatida «al-Mabsut» asarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Bu asar fiqh kitoblarining qomusi deb yuritiladi. Saraxsiyning ushbu asariga mashhur olim Abu Fazl Muhammad ibn Ahmad Marvaziyning (vafoti hijriy 334-y.) «Kofiy» kitobi asos bo‘lgan. Olim bunday yozadi: «Men yashagan zamonda ilmlar tolibi bir necha sabablar bilan fiqhdan uzoqlashishlariga guvoh bo‘ldim. Shu bois, «Muxtasar»ga sharh yozib, har bir masalani yoritishda kerakli ma’nodan ortiqcha narsani qo‘shmaslikni, har bir bobda ishonchli bo‘lgan ma’lumotlar bilan cheklanishni maqsadga muvofiq topdim» (Мұхаммад ибн Ахмад., 1989:4). Tarixiy manbalarda alloma o‘zining mashhur «al-Mabsut» asarini qamoqda shogirdlariga yoddan ayтиб yozdirganligi qayd etilgan. U nafaqat bu kitoblarni, balki o‘n ikki ming risolani yoddan o‘rganganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan (Abu al-Wafa al-Afghani., 1993:5). Saraxsiyning fiqh sohalariga bag‘ishlangan «al-Mabsut» asari uning nodir asaridan bo‘lib, mazmun-mohiyatan salmoqli kitoblardan biridir. Uning «al-Mabsut» asari hozirgacha usul va furu ilmi sohalarida asosiy darslik sifatida o‘rganiladi. Unda islom huquqshunosligiga xos ko‘plab masalalar va ularning yechimlari yuzasidan bahs yuritiladi. Shu sababli ham imom Saraxsiyga nisbatan «Sohibul Mabsut» deya asarning ham mavqeyini bildirib o‘tishadi. Bu asar har zamon uchun etarli darajada ilm manbai bo‘lib kelmoqda.

Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl Saraxsiy-Hanafiy – usulchi faqih, mujtahid, mutakallim va munozir bo‘lgan (Abdulloh Abdulhamid Saad., 2007:202). Manbalarda uning yana quyidagi asarlari qayd etiladi: «Usul al-fiqh» (Fiqh nazariyasi), «Ashrot as-soa» (Qiyomat shartlari), «Sharh Adab al-qoziy lil Xassof» (Xassofning «Qozilik adabi»ga sharh), 15 jildli «Nahv ilmi haqida keng qamrovli kitob» (Убатов Y., 2021:117), «Sharh al-Jome’ al-kabir» («Katta majmua»ga sharh), «Sharh al-Jome’ as-sag‘ir» («Kichik majmua»ga sharh), «al-Favoid al-fiqhiyya» (Fiqhga doir foydalar), «Sharh Muxtasar at-Tahoviy» (Tahoviyning «Muxtasar»iga sharh) kabi nodir kitoblarni ko‘rishimiz mumkin (Agzamxo‘jayev S., Zikrullayev M., Shojalilov Sh., Mo‘minov D., Saidjalilov S., 2011:29).

XULOSA

Ushbu jarayonlarni umumlashtirgan holda O‘rta asrlar musulmon olamida to‘plangan ilmiy bilimlar g‘arbda Uyg‘onish davrini tayyorlash uchun asosiy fundament vazifasini bajargan. Imom Saraxsiy hanafiylarning tez-tez iqtibos keltiriladigan faqihlaridan biri ekani bois, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Kifoya» asarida Hanafiy mazhabи huquqshunoslari tabaqalarini sanab o‘tgani (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf., 2021:55). «Faqih» nomini olganlarning darajalari bir xil emas, balki ularning darajalari yetti turga bo‘lingan. Birinchi tabaqaga shariat miqyosida ijтиҳод qilgan ulkan imomlar, bunda to‘rt mazhabboshi bo‘lgan imomlarimiz kiradi. Hanafiy mazhabining asoschisi Abu Hanifa mutlaq mujtahid sifatida tanilgan birinchi toifaga kiradilar. Abu Hanifaning shogirdlari Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy va Abu Hanifaning boshqa shogirdlari ikkinchi toifaga kiritilgan bo‘lib, ular Hanafiy mazhabi ichida mujtahid sifatida tanilganlar. Ular asosiy qoidalarga daxl qilmagan holda ba’zi far‘iy hukmlarda ustozlariga xiлоf qilishlari mumkin. Uchinchi tabaqaga mazhabboshi imomdan rivoyat qilinmagan masalalarda ijтиҳod qiladigan faqihlar tabaqasi bo‘lib, Xassof, Tahoviy, Halvoniy, Bazdaviy, Shamsulaimma Saraxsiy va boshqalar o‘z shayxlari ishlab chiqqan qoidalari asosida mazkur shayxlardan birorta rivoyat qolmagan masalalarda hukm chiqarish huquqiga ega mujtahid hisoblanadi. Demak, bundan bilishimiz mumkinki, Imom Saraxsiy hanafiy mazhabи olimlari ichida yuksak o‘ringa ega bo‘lib, uchinchi toifaga kiruvchi mujtahid hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk ajdodimizning ilmiy meroslarini ommalashtirishga bo‘lgan zarurat sezilmoqda va bunda biz yoshlar chuqur ilmiy izlanishlar olib borishimiz, noyob asarlarni ilmiy muomalaga kiritishimiz va bu orqali Islom ilmi va madaniyatini jahonga tanitishimiz zarur bo‘ladi. Ayniqsa, bizning o‘lkamiz ilm o‘chog‘i ekani, har davr uchun eng zabardast allomalarimizga ega ekanligimiz o‘z o‘rnida ham sharaf, ham mas‘uliyatdir. Barchamizga ma‘lumki, ko‘plab sohalarning yetakchilari bizning diyorimizdandir. Hozirgi sharoit va imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda biz asl huquq sohasining yetakchisi Imom Saraxsiyayev hayoti va biz avlodlarga qoldirgan buyuk merosini chuqurroq o‘rganishimiz zarur bo‘lib, xalqaro maydonda yurtimiz nomini yanada ulug‘lashimiz lozim.

Shu o‘rinda ayrim G‘arb tadqiqotchilari tomonidan bir yoqlama tadqiqotlar bilan chegaralanish ilmiy xolislikni amalga oshirishda to‘sinqilik qilmoqda. Xalqaro huquq sohasida G‘arb olimlarining asarlari e’tirof etilsa-da, ushbu olimlardan bir necha asrlar avval yashab o‘tgan yurtimiz allomalari tomonidan huquq yo‘nalishida bitilgan asarlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Isbot sifatida Imom Saraxsiyayev biz yuqorida yoritib o‘tgan asarlarini keltirishimiz mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, Sharq allomalarining xalqaro huquq sohasidagi izlanishlari, asarlari va bizga qoldirgan ilmiy meroslari beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Islom va xalqaro huquqda ham bizning allomalarimiz dunyo miqyosida yetakchilik qilishgan, ularning ilmiy kashfiyotlari hali hamon dunyo hamjamiatini lol qoldirib kelmoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yuldasheva G. (2018). Xalqaro huquq. Tjshkent: TDYU nashriyoti.
2. Umarxonova D.Sh., Umridionov A.I. (2021). Vizual Xalqaro huquq. T.: «Yuridik adabiyotlar publish».
3. Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T. (2007). Xalqaro ommaviy huquq. Toshkent davlat yuridik universiteti. Toshkent: Adolat.
4. Umarxonova D.Sh., Umridionov A.I. (2021). Vizual Xalqaro huquq. T.: «Yuridik adabiyotlar publish».
5. Lukashuk I.I., Saidov A.X. (2007). Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: darslik. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti.
6. Nguyen Quoc Dinh. (1994). Droit International public. Patrick Daillier et Alain Pellet. 5-edition.Paris, L.G.D.J., Grotius, pere du droit international.
7. Scott J. (1928). The Spanish Origin of International Law. N.Y.
8. Гроцкий Г. (1956). О праве войны и мира. Три книги. Москва.
9. Камаровский Л.А. (1895). Основные вопросы науки международного права. Москва.
10. Yunusov H. (2022). Islom va xalqaro huquq. Islom xalqaro huquq ta’limoti: Saraxsiyayev xalqaro-huquqiy qarashlari. Monografiya. T.: «Lesson press».
11. A‘zamxo‘jayev S., Zikrullayev M., Shojalilov Sh., Mo‘minov D., Saidjalilov S. (2011). «100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari». Toshkent Islom universiteti; T.: «Yangi nashr».
12. Norman Calder. «as-Sarakhsî», Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al-A‘imma. Encyclopedia of Islam (Leiden: Brill, 1997 Second Edition) // Zahid Jalay article of «Imam Sarakhsî» // www.academia.edu
13. Abd al-Hai al-Laknavi (1906). al-Fawaid al-Bahiyah fi Tarajim al-Hanafiyyah. Quetta: Maktaba Omariyah.
14. Rafiq al-Ajam. (2008). «Biography of Imam Sarakhsî», «Usul al-Sarakhsî». Karachi: Qadimi Kutub Khana.
15. Pleaders. Article of «Father of international law», july 3, 2022.
16. Muhammad ibn Ahmad. (1989). «Mabsut» Birinchi juz. Bayrut, «Dor al-ma‘rifâ».
17. Abu al-Wafa al-Afghani. (1993). «Usul al-Sarakhsî». Beirut: Dar al-Kutub al-Ilyiah.
18. Abdullohamid Saad. (2007). «O‘rtâ Osiyo olimlari qomusi». Imom Buxoriy ilmiy-ma‘rifiy markazi.
19. Uvatov U. (2021). «Renessans olimlari qomusi». Toshkent: «O‘zbekiston xalqaro islam Akademiyasi».
20. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2021). «Kifoya»/1-juz. T.: «Hilol-Nashr».

REFERENCES

1. Yuldasheva G. (2018). Xalqaro huquq. Toshkent: TDYU nashriyoti.
2. Umarxonova D.Sh., Umridionov A.I. (2021). Vizual Xalqaro huquq. Tashkent: «Yuridik adabiyotlar publishing house».
3. Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T. (2007). Xalqaro ommaviy huquq. Tashkent State Institute of Law. Tashkent: Adolat.
4. Umarxonova D.Sh., Umridionov A.I. (2021). Vizual Xalqaro huquq. Tashkent: «Yuridik adabiyotlar publishing house».
5. Lukashuk I.I., Saidov A.X. (2007). Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: darslik. Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni publishing house.
6. Nguyen Quoc Dinh. (1994). Droit International public. Patrick Daillier et Alain Pellet. 5-edition.Paris, L.G.D.J., Grotius, pere du droit international.
7. Scott J. (1928). The Spanish Origin of International Law. N.Y.
8. Grosiy G. (1956). O prave voyni i mira. Tri knigi. Moscow.

9. Kamarovskiy L.A. (1895). Osnovnyye voprosy nauki mejdunarodnogo prava. Moscow.
10. Yunusov H. (2022). Islom va xalqaro huquq. Islom xalqaro huquq ta'limoti: Saraxsiyning xalqaro-huquqiy qarashlari. Monography. T.: «Lesson press».
11. Agzamxo'jayev S., Zikrullayev M., Shojalilov Sh., Mo'minov D., Saidjalilov S. (2011). «100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari». Tashkent: «Yangi nashr».
12. Norman Calder. «as-Sarakhsî», Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al-A'imma. Encyclopedia of Islam (Leiden: Brill, 1997 Second Edition) // Zahid Jalay article of «Imam Sarakhsî» // www.academia.edu
13. Abd al-Hai al-Laknavi (1906). al-Fawaid al-Bahiyah fi Tarajim al-Hanafiyyah. Quetta: Maktaba Omariyah.
14. Rafiq al-Ajam. (2008). «Biography of Imam Sarakhsî», «Usul al-Sarakhsî». Karachi: Qadimi Kutub Khana.
15. Pleaders. Article of «Father of international law», july 3, 2022.
16. Muhammad ibn Ahmad. (1989). «Mabsut» Birinchi juz. Beirut: «Dar al-ma'rifa».
17. Abu al-Wafa al-Afghani. (1993). «Usul al-Sarakhsî». Beirut: Dar al-Kutub al-Ilyah.
18. Abdulloh Abdulhamid Saad. (2007). «O'rta Osiyo olimlari qomusi». Imom Bukhari scientific center.
19. Uvatov U. (2021). «Renessans olimlari qomusi». Toshkent: «O'zbekiston xalqaro islom Akademiyasi».
20. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2021). «Kifoya»/Vol.1. T.: «Hilol-Nashr».



**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНинг
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ**

Мазкур нашр олий ўкув юрглари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,
мустакил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتریدیۃ - Матуридизм

4/2023

Бош мұхаррір: Ж.Каримов

Мұхаррір: З.Фахриддинов

Нашир учун масъул: З.Арслонов

Чет тилларидаги матнлар мұхарріри: О.Сотвоздиев

Дизайнер-саҳифаловчи: З.Ғуломов

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@moturidiyuz

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.
Босишига 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими $60 \times 84 \%$.
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табоғи 10,2.
Нашр табоғи 10,4. Буюртма № 20.
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية